

**Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi
va uni amalga oshirish strategiyasi.**

Ro'ziyeva Sevara

Rofiyeva Gulnoza

Baxriyeva Durdona

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashishi va usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, „Xalq harakati“ partiyasi, korrupsiya, strategiya, byurokratik, me'yor, unsur, paradigma.

O'tgan asr 50-yillarining o'rtalarida britaniyaliklar o'z mustamlakasi bo'lmish Singapurni tashlab chiqib ketishganida singapurliklarning ixtiyorida o'ta ojiz qonunchilik bazasi, mutlaqo savodsiz aholi, past maoshlar, shaffof bo'lмаган iqtisodiyot, har yerda hoziru nozir korrupsiya qolayotgan edi. Odamlarni juda g'ira-shira istiqbol qarshi olayotgandi. Li Kuan Yu «Xalq harakati» partiyasi bilan birgalikda saylovlarda yutib chiqdi va bosh vazir etib saylandi. Aynan u korrupsiyaga qarshi kurashning ramziga aylandi va uning shiori: «Korrupsiyani yengaman desang, do'stlaring va qarindoshlaringni panjara ortiga jo'natishga tayyor bo'l», edi. Li Kuan Yuning jamoasi shug'ullangan birinchi vazifalardan biri korrupsiyani yo'q qilish va aholining davlatga bo'lgan ishonchini oshirishdan iborat edi.

Singapur korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi o'zining qat'iyligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatdagi falsafiy paradigma "korrupsiyani nazorat qilish mantig'i" ga asoslanib: "korrupsiyani yo'q qilishga urinishlar ham rag'batlantiruvchi, ham shaxsni korrupsiyaviy harakatlarni sodir etishga undash

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

uchun imkoniyat yaratadigan sharoitlarni minimallashtirish yoki yo‘q qilish istagiga asoslangan bo‘lishi kerak"1,— degan g‘oyaga asoslanadi. Bu paradigmada: birinchidan, mansabdor shaxslarning harakatlarini tartibga solish; ikkinchidan, byurokratik protseduralarni soddalashtirish; uchinchidan, yuksak axloqiy-ma’naviy me’yorlarga rioya qilish ustidan qat’iy nazoratni kuchaytirish masalasi ilgari surilgan edi.

1965 yilda mustaqillik davrida Singapur korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakat edi. Undan qutilish uchun qonunchilik kuchaytirildi, sud hokimiyatining mustaqilligi oshirildi (yuqori ish haqi va sudyalarining imtiyozli maqomi bilan), pora bergani yoki korrupsiyaga qarshi tergovda qatnashishdan bosh tortganligi uchun iqtisodiy sanksiyalar joriy etildi va bojxona xodimlari va boshqa davlat xizmatlarini to‘liq ishdan bo‘shatishgacha qattiq choralar ko‘rildi. Bu iqtisodiyotni tartibga solish, mansabdor shaxslarning ish haqini oshirish va ma’muriy kadrlarni tayyorlash bilan birlashtirildi. Korrupsiya holatlarini tergov qiluvchi avtonom Byuro tuzildi va u fuqarolarning davlat xizmatchilari ustidan shikoyatini va ular tomonidan yetkazilgan zararni undirib beruvchi markazga aylantirildi. Shu tariqa, ayni paytda Singapur korrupsiya, iqtisodiy erkinlik va rivojlanishning yuqoriligi bo‘yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Shvesiyaning korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi va uni amalga oshirish strategiyasi. XIX asrning o‘rtalariga qadar Shvesiya korrupsiya rivojlangan mamlakat edi. Bundan qutilish yo‘lini o‘zida aks ettiruvchi falsafiy paradigmanning o‘ziga xos xususiyatlari: birinchidan, merkantilizm va uning oqibatlarini tugatish; ikkinchidan, barcha pog‘onadagi mansabdorlar uchun yuksak darajadagi axloqiy-ma’naviy normalarni ishlab chiqish va ularga amal qilishni ta’minlash; uchinchidan, mustaqil vaadolatli sud tizimini yaratish kabilar bilan tavsiflanadi. Shunga ko‘ra mamlakatni modernizatsiya qilishda merkantilizmni yo‘q qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rildi. O‘sandan beri davlat tomonidan tartibga solish firmalarga qaraganda ko‘proq uy xo‘jaliklariga qaratildi, bunda e’tibor taqiqlash va ruxsatnomalar berishga emas, balki imtiyozlarni, soliqlar yukini kamaytirish va shu kabilar orqali berishga qaratildi. Ichki davlat

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hujjatlaridan foydalanish imkoniyati ochildi, mustaqil va samarali sudlovga asoslangan adolat tizimi yaratildi. Shu bilan birga, Shvesiya parlamenti va hukumati ma'murlar uchun yuqori axloqiy me'yorlarni o'rnatdi va ularni bajarish boshlandi. Natijada, bir necha yil o'tgach, halollik amaldorlar(byurokratiya) o'rtasida ijtimoiy normaga aylandi. Bugungi kunda Shvesiya dunyodagi eng past korrupsiya darajasiga ega davlatlardan biri sanaladi.

Bulardan tashqari bunday paradigmalarni amalga oshirishni Gongkong, Portugaliya, Malayziya, Estoniya kabi mamlakatlar misolida ham keltirish mumkin.Korrupsiyaga qarshi kampaniya to'rt unsurdan iborat bo'lib, ulardan birinchisi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi kuchli va mustaqil xizmatni tashkil etishdan iborat edi. Britaniyaning istilochi hukumatidan Korrupsiyani tergov qilish byurosi — KTB qolgan edi, biroq uning vakolatlari juda chalkash, xodimlari esa juda mayda ishlar — politsiya quyi va o'rta eshelonlari, rasta savdosini nazorat qilayotgan inspektorlar, yer tuzuvchi inspektorlar bilan bog'liq korrupsiya ishlari bilangina shug'ullanishardi. Li Kuan Yu KTBni juda kuchaytirib, uni Singapur bosh vaziriga bo'ysundirdi va cheksiz chinakam vakolatlar bilan ta'minladi.

Amaldorlar daxlsizlikdan mosuvo etildi

Parallel ravishda barcha amaldorlar va ularning oila a'zolari daxlsizlikdan mosuvo etildi. KTB agentlari nafaqat amaldorlar, shuningdek ularning bolalari, xotinlari, qarindoshlari va hattoki do'stlariga tegishli bank hisob raqamlari va mol-mulkarni tekshirish huquqiga ega bo'lishdi! Agar amaldor va uning oilasi topadiganidan ko'proq xarajat qilayotgani aniqlansa, byuro avtomatik ravishda tepadan buyruq kutmasdan tergovni boshlaydi. KTB surishtiruvlari hukumatning oliy eshelonidagi yirik poraxo'rlarga qaratilgan edi. Kichik tovlamachi amaldorlar bilan esa qaror qabul qilish yo'llarining soddalashtirilishi, jamoatchilik hayotining u qadar muhim bo'lmagan sohalarida ruxsatnomalar va litsenziyalashni bekor qilish bilan kurash olib borishdi. Sudlarga esa korrupsiya natijasida qo'lga kiritilgan mol-mulkni musodara qilish huquqi taqdim etildi.

1989 yilda korrupsion xatti-harakat uchun maksimal jarima miqdorini 10 mingdan 100 ming Singapur dollarigacha ko'tarishdi. KTBga yolg'on guvohlik

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

berish yoki tergovni chalg‘itish qamoq jazosi va 10 ming dollar jarima bilan jazolanadigan bo‘ldi. KTB bir necha marta Li Kuan Yu va uning oila a’zolariga nisbatan ham surishtiruv olib borgan, lekin muvaffaqiyatga erishmagan. Faoliyat ko‘rsatgan davr mobaynida KTB bir necha federal vazirlar, kasaba uyushmalari rahbarlari, jamoat arboblari, davlat kompaniyalari top-menejerlarini qamoqqa olgan.

Hach qanday murosadan xoli

Keling, Singapur hukumati oliy maqomli amaldorlardan birini javobgarlikka qanday tortganligini ko‘rib chiqaylik.

Vi Tun Bun 1975 yilda oilasi bilan Indoneziyaga safar qilganida atrof-muhit muhofazasi vaziri edi. Ushbu safar xarajatlari turar-joylar qurayotgan firma tomonidan to‘lab berilgani aniqlanadi, firmaning manfaatlarini vazir davlat xizmatchilari oldida himoya qilardi. Vazir shu pudratchidan 500 ming Singapur dollari turuvchi dang‘illama uy, o‘z otasi nomiga fond bozorlarida chayqovchilik qilish uchun o‘sha firmaning kafolati ostida 300 ming dollarli ikkita kredit ham oladi. U ayblanib, sudlanadi va to‘rt yarim yilga qamaladi. Vazir hukmdan norozi bo‘ladi, garchi qamoq jazosi bir yarim yilgacha qisqartirilgan bo‘lsa-da, hukm o‘z kuchida qoladi.

Topganiga yarasha yashash

Aksilkorrupsiya dasturining ikkinchi unsuri: Singapurda fakt jihatidan hukumat agenti, istalgan davlat idorasi yoki jamoatchilik tashkilotining aybdorlik prezumpsiyasi joriy etilgan edi. 1960 yilda qabul qilingan qonunga ko‘ra, o‘z daromadlariga mos bo‘lмаган dabdabali hayot kechirayotgan va mol-mulkka ega bo‘lgan ayblanuvchi korruption daromadlarga ega ekanligi — pora olganini isbotlovchi dalil sifatida qabul qilinardi.

Hukumat bilan aloqalar izlayotgan shaxsdan har qanday ko‘rinishdagi sovg‘a-salom olgan amaldor korruption yo‘l bilan rag‘bat yoki mukofot sifatida olgan hisoblanadi, toki teskarisi isbotlanmasa. Bu esa aybsizlikni isbotlash yukini xizmatchining zimmasiga yuklaydi, u korruption sxema doirasida mukofotni olmaganiga sudni ishontirishga majbur. Agar amaldorning aybi isbotlansa, uning

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mol-mulki musodara etiladi, o‘zi ulkan jarima to‘lab, yaxshigina muddatga qamaladi. Boz ustiga, uning oilasi ham sharmanda bo‘lib, oila a’zolaridan hech kim Singapurda tuzuk ishga o‘ta olmaydi.

Intizomlilik uchun katta maosh

Uchinchi unsur — amaldorlarning oylik ish haqlari radikal keskin oshirilgan. Li Kuan Yu davlat xizmatchilari katta maosh olishlari kerak, chunki ular tartibli va halol hukumat vakili bo‘lishgan va shunga loyiq, deb hisoblardi. Agar ularga kam ish haqi to‘lsansa ularning nafsi g‘olib chiqib, korruption xattiharakatlarga qo‘silib qolishlari mumkin.

Oyliklarning oshirilishi davlat sektoriga eng yaxshi mutaxassislar kelishiga zamin yaratdi. Mamlakatda shiddatli iqtisodiy o‘sish kuzatila boshlanganida, amaldorlarning maoshlari xususiy sektor daromadlariga mutanosib ravishda o‘saboshladidi. Mas’ul lavozimlarda o‘tirgan davlat xizmatchilari va sudyalar xususiy korporatsiyalarning top-menejerlari singari maosh ola boshlashdi. Avvaliga, ish haqi yetarli tarzda yuqori miqdorda belgilab olingan edi.

Li Kuan Yu bu tizimni samarasiz deb hisobladi va yangi tizimni taklif etdi. Unga ko‘ra vazirlar, sudyalar va oliy martabali davlat xizmatchilarining maoshlari xususiy sektor tomonidan to‘lanayotgan soliqlarning miqdoriga avtomatik tarzda bog‘lab qo‘yildi. Hanuzgacha ish berayotgan ish haqini hisoblab chiqish formulasi quyidagi ko‘rinishga ega: amaldorning mehnatiga haq to‘lash miqdori xususiy sektoring xuddi shu darajadagi ishchilari daromadlarining ular deklaratsiya ko‘rsatgan miqdorining 2/3 qismiga teng.

OVV omili

To‘rtinchi unsur — korrupsiya o‘id barcha faktlarni betinim yoritib boruvchi mustaqil va xolis ommaviy axborot vositalarining shakllantirilishi bo‘ldi. O‘ta dabdabali xarajatlar, porada payqalgan amaldor darhol nashrlarning birinchi sahifalaridan o‘rin olar edi.

Xullas kalom, korrupsiya qarshi muvaffaqiyatli kurashish uchun bosiladigan asosiy qadamlar mana shulardan iborat.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod— O'zbekiston taraqqiyotining poydevori- T: „O'zbekiston” 1997.
2. Karimov I.A O'zbekiston XXI asrga intilmoqda— T., 1999.
3. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman „Fidokor”, 2000-yil 8-iyun.
4. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda -T: „O'zbekiston”, 2000.